

**TALABALARNING MA'NAVIY-AHLOQIY TARBIYASIDA HADIS
ILMINING AHAMIYATI (IMOM BUXORIY VA AT-TERMIZIY ASARLARI
MISOLIDA)**

Jurayeva Ismigul Bahodir qizi

Osiyo Xalqoro universiteti talabasi

Ramazonov Jaxongir Jalolovich

Psixologiya fani bo'yicha falsafa fanlari doktori (PHD) Dostent

Annotatsiya: *Dunyo madaniyatlaridan biri bo'lgan Islom o'zining azaliy an'analarini saqlab qoldi va G'arb davlatlarini texnologiya nuqtai nazaridan faol ravishda qo'lga kiritdi. Islomni o'rganayotgan olimlarning asarlari tahlili Islomning muqaddas kitobi Qur'onda asoslangan ushbu madaniyat an'analarini tizimlashtirish va uzatishning ishonchliligini ko'rsatdi. Tadqiqotchilar Qur'on satrlarida insoniyat dunyo ilm-fanining yuzlab yillik rivojlanishi davomida olib borgan ilmiy bilimlar, nazariyalar va qonunlarning ko'plab sirlarini ochib berishini isbotladilar. Maqolada Imom Buxoriy ma'naviy merosining jahonshumul ahamiyati, allomalar asarlarining yoshlar tarbiyasida ijobiy fazilatlarini shakllantirishdagi ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati o'rganilgan*

Kalit so'zlar: *hadis, inson, ma'naviy dunyo, hadis ilmi, Islom, axloqiy tarbiya, axloqiy Kamolot, ezgulik, ezgulik, fazilat, meros.*

Ilmiy va pedagogik adabiyotlarda "ta'lim" tushunchasi ko'p qirrali ma'noga ega. "Ta'lim-bu jamiyatning yosh avlodni hayotga tayyorlash funktsiyasi bo'lib, u barcha ijtimoiy tuzilmalar: jamoat institutlari, tashkilotlar, cherkov, ommaviy axborot vositalari va madaniyat, oila va maktab tomonidan amalga oshiriladi; o'qituvchilar tomonidan o'quv muassasalarida olib boriladigan va shaxsni rivojlantirishga qaratilgan shaxsni shakllantirishning maxsus tashkil etilgan va boshqariladigan jarayoni; ijtimoiy-tarixiy tajribani yangi avlodlarga etkazish, ularni ijtimoiy hayotga va samarali mehnatga tayyorlash maqsadida" [2].

"Ta'lim-bu inson rivojlanishi uchun sharoitlarni (moddiy, ma'naviy, tashkiliy) ijtimoiy, maqsadli yaratish" [3].

"Ta'lim-bu shaxsni ishlab chiqarish, ijtimoiy va madaniy faoliyatga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga tizimli va maqsadli ta'sir ko'rsatish jarayoni" [4].

"Ta'lim, insonning atrof-muhit bilan o'z-o'zidan o'zaro ta'siri sharoitida yuzaga keladigan sotsializatsiyadan farqli o'laroq, maqsadli va ongli ravishda boshqariladigan sotsializatsiya (oilaviy, diniy, maktab ta'limi) jarayoni sifatida qaraladi" [5].

"Ta'lim (ijtimoiy hodisa sifatida)-bu barcha ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-tarixiy tajribani yangi avlodlarga etkazishning murakkab va qarama-qarshi ijtimoiy-tarixiy jarayoni: jamoat tashkilotlari, ommaviy tashkilot va madaniyat vositalari, cherkov, oila, turli darajadagi va yo'nalishdagi ta'lim muassasalari. Ta'lim pedagogik hodisa sifatida valeologik, fuqarolik, ma'naviy, axloqiy, umuminsoniy, ko'p

madaniyatli, siyosiy, jinsiy, huquqiy, oilaviy, mehnat, aqliy, jismoniy, badiiy, ekologik, iqtisodiy, estetik, axloqiy, erkin, ijtimoiy, ta'lim nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Hadislarda islom dini ahkomlari, ya'ni farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabilardan tashqari, odob-axloqqa doir ko'rsatmalar ham talqin etiladi. Ularda ibodatning tartib-qoidalari va ularni mukammal bajarishga da'vat etish bilan birga insoniy fazilatlar ham keng tashhiq qilinadi, insoniylik shaniga dog' tushiradigan razil sifatlar qoralanadi. SHuning uchun ham islom dinining ilk davrlaridanoq musulmonlar hadislarga juda katta ahamiyat berishgan. Eshitgan har bir hadisni xatosiz, asl holicha boshqalarga etkazishga rioya qilingan. Bu to'g'rida Muhammad (s.a.v) payg'ambarimizning o'zi musulmonlarni tez-tez ogohlantirib turgan. Lekin keyinchalik turli sinfiy va ijtimoiy ziddiyatlar, islom dinidagi ichki g'oyaviy kurashlar natijasida ko'pgina soxta hadislar ham yuzaga kelgan. Natijada yirik muhaddislar hadislarni ishonchli manbalar asosida qayta ko'rib chiqish va ularning haqiqiyliklarini soxtalaridan ajratish uchun ancha xizmat qilganlar.

Avvalambor, biz faxr va iftixor bilan ta'kidlay olamizki, biz, o'zbek ahli dunyo ahliga ilm-u ma'rifat, iymon, e'tiqod sabog'ini ulashgan buyuk ajdodlarning avlodlarimiz. Buning buyuk asosi esa hech shubhasiz, muqaddas dinimiz-Islom diniga borib taqaladi. Dinimiz bizni eng avvalo ezgulikka, tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini, insoniylikni asrab-avaylashga da'vat etadi. Markaziy Osiyo uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyondalari Islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday allomalarimizdan biri Imom Al-Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy" ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bunday buyuk zotning boy me'rosini asrab-avaylash va o'rganish, islom to'g'risidagi ta'limotni keng yoyish maqsadida Samarqand shahrida Imom Al-Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi bunyod etilgan. Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu birgina maqsadga xizmat qiladi.

Imom al- Buxoriy yozgan asarlari sarasiga "Al-Jomi' as-sahih" ("Sahihi Buxoriy"), "Al-adab ul-mufrad" ("Adab durdonalari"), "at-Tarix va al-kabir" (Katta tarix), "Kitob asmo' as-sahoba" ("Sahobalar ismlari kitobi"), "at -Tarix al-avsat" (O'rtacha tarix), "at-Tarix as - sag'ir" (Kichik tarix), "Kitob ar-rifoq" (Nafosat haqida kitob), "Bir al-volidayn" (Ota - ona hurmati), "al- Adab al- mufrad" (Axloq -odob haqidagi hadislar to'plami) va boshqalarni kiritish mumkin. Imom al -Buxoriyning yigirmadan ortiq asarlari hadis ilmining turli sohalari bo'yicha yozilgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyin turadigan ikkinchi ijtimoiy - siyosiy, axloqiy, huquqiy hujjat hisoblangan "al-Jomiy as-sahih" asar, dunyoda "Sahih al-Buxoriy" nomi bilan mashhurdir. "Al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. [1,28] Bu shoh asar ikki dunyo saodatiga eltuvchi yo'l sifatida qanchadan - qancha nusxalarda dunyoning turli tillariga tarjima qilinmoqda.

Alloma asarlarida axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlarining markazida komillik, insonlarning o'zaro mehribon bo'lishlari, bir - birlariga har doim yordam berish, ahil - totuv yashash kerakligi, halol mehnat qilish, yaxshilik, ezgulik g'oyalari yotadi. Imom Buxoriy

qalbi pok, iymonli, atrofda gilariga umuman zarar yetkazmaydigan, odamlarga faqat yaxshilik qiladigan va yordam beradigan insonlarnigina axloqan barkamol deb hisoblaydi.

Imom Buxoriy hadislaridan: "Insonlarga yomonlik qilishdan uzoq tur. Zero bu o'zingga sadaqadir". Ya'ni, boshqalarga foydasi tegadigan odam eng yaxshi insondir. Islom insonning manman, xudbin bo'lib, faqat o'z manfaatini o'ylab, ish tutishini ma'qul ko'rmaydi. Alloh boshqalar uchun fidoyi, samimiy va hojatbaror bandalarini qadrlaydi. (Buxoriy, 2518) [2,6]

Demak, hadisning mohiyati shunga qaratilganki, odamlar bir - biriga faqatgina moddiy narsalar bilan yordam berish emas, balki moddiy va ma'naviy imkoniyatiga qarab muhtojlarga yordam berishi, imkoniyati bo'lmaganida esa birovlariga umuman yomonlik qilmaslik bilan ham birovlariga yaxshilik qilishi e'tirof etilgan.

Albatta, alloma yaxshi amallarni har kishi o'zidan, oilasidan va qarindosh -urug'laridan, so'ngra esa qo'ni - qo'shnisidan boshlashi lozimligini uqtirib o'tadi. "Oltin Silsila. Sahihul Buxoriy" asarining birinchi juz'ida, "Qo'li va tilidan musulmonlar omonda bo'lgan kishi(ning amali)", degan hadis kiritilgan.[3,132] Albatta, insonlar o'rtasidagi munosabatlarda qo'l bilan til a'zolari asosiy vazifani bajaradi.

Shu asarning ettinchi bobida "O'zi uchun yaxshi ko'rgan narsasini birodariga ham ravo ko'rmaguncha mo'min bo'la olmaydi", deyдилar [3,133]. Bu bilan mutafakkir insonlarni doimo yaxshilikka, ezgu ishlarga da'vat qiladi.

Yaxshilik va ezgulik inson axloqining asosiy fazilatlaridan biridir. Al-Buxoriy barcha insonlar bir - birlari bilan aka-uka, opa -singil va birodar ekanini alohida qayd etadi. Ular bir-birlari bilan o'zaro hamjihatlikda, bir - birlarini qo'llab quvvatlab yashashlari lozimligi e'tirof etiladi.

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratilgan asarlari ichida «al-Jomi' as-sahiyh» («Ishonchli to'plam») eng asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek, «al-Jomi' al-kabiyr», («Katta to'plam»), «Sahiyh at-Termiziy», «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Xajar al-Asqaloniyning yozishicha, at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan

Ushbu asar qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, o'zimizda, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy nomli

Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manba sifatida «Al-Jomi' as-sahiyh» bir necha marta nashr qilingan. Bunga dalil sifatida 1283 (1866) yili Mitohda, 1292 (1875) yili Qohirada, shuningdek, 1980 yili Bayrutda nashr etilganligini ko'rsatish kifoya. At-Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo'lib, ulardan ibn al-Arabiy (vafoti 543 hijriy, 1148 melodiy yili) nomi bilan mashhur bo'lgan imom hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbilyning «Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy» nomli 13 juz' (qism)dan iborat sharhlarini keltirish mumkin. Ushbu sharh dastlab 1931 yilda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1283-1353) qalamiga mansub yana bir sharh ham «Tuhfat ul-Ahvaziy bisharhi at-Termiziy» deb ataladi. To'rt juz'dan iborat bo'lgan bu asar 1979 yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib Jamoliddin

Abdurrahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiyning (1445-1505) at-Termiziy asariga yozgan sharhi «Qut al-mug'taziy ala Jomi' at-Termiziy» (undan ikki qismi nashr qilingan), deb atalgan.

Bulardan tashqari Muhammad ibn Abduqodir Abu at-Tayyib al-Madaniyning «Sharh Sunan at-Termiziy», Ahmad Muhammad Shokirning «Tahqiq va sharh Jomi' at-Termiziy» (o'ndan ikki qismi 1937 yilda Mustafa al-Bobiy al-Halabiy tomonidan nashr qilingan), Muhammad Yusuf al-Bannuriyning «Maorif sunan sharh sunan at-Termiziy» (uning birinchi qismi 1963 yilda Pokistonda nashr kilingan), Siroj Ahmad as-Sarhandiyning «Sharh sunan at-Termiziy» nomli forscha sharhi, shuningdek Rashib Ahmad al-Kanuhiyning «Al-kavkab ad-durriy ala at-Termiziy» (Hindistonda chop etilgan), Muhammad Anvarshoh al-Kashmiriyning ikki juz'dan iborat «Al-Urf ash-shaziy ala Jomi' at-Termiziy» (bu asar ham Hindistonda chop etilgan) va nihoyat Abul-Hasan Muhammad ibn Abdulhodiy as-Sanadiyning (u 1138 yilda vafot etgan) «Hoshiya ala sunan at-Termiziy»[10] kabi sharhlarini ko'rsatish mumkin.

Avval eslatib o'tganimizdek, hijriy uchinchi asr (melodiy to'qkizinchi asr) hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblanadi. Dastlab bu davrda yashab ijod qilgan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim kabi allomalarning sermahsul faoliyati katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilganda, Imom al-Buxoriy hadislarining jahonshumul ahamiyati insoniylik, insonparvarlik Vatanga muhabbat haqida tarbiya berishi bilan yosh avlodda ezgulik va go'zallik tuyg'ularini mujassamlashtiradi. Ilm_fanda "Hadis ilmining amiri" deb bir ovozdan tan olingan Imom Ismoil al Buxoriy hadislarini mehr_oqibat, sahiylik, ota_ona va kattalarga omad, yetim_yesirlarga muruvvat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollik, turli xalqlarning o'zaro do'st, tinch_totuv yashashlari kabi insoniy fazilatlari barkamol avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buyuk siymolar, allomalar. 1 - kitob, - Toshkent, Fan, 1995
2. 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan) - O'zbekiston, NMIU, 2020 yil
3. Oltin Silsila: 1 -juz.Sahihul Buxoriy - Toshkent, "Hilol - nashr", 2016
4. 1001 mavzuda 1001 hadis (Sharh va ilovalari bilan) - O'zbekiston, NMIU, 2020 yil
5. [https://lex.uz/uz/docs/5841063//0'z.Res.Prezidentining Farmoni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot startegiyasi"](https://lex.uz/uz/docs/5841063//0'z.Res.Prezidentining_Farmoni_2022-2026_yillarga_mo'ljallangan_Yangi_O'zbekistonning_taraqqiyot_startegiyasi) to'g'risida.PF - 60 son, 28.01.2022 yil